

## **Avtomobil transporti faoliyati asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha uslubiy Nizom**

Mazkur uslubiy Nizom O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga va xalqaro standartlarga muvofiq transport statistikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish, ularning xalqaro darajada taqqoslanishini ta'minlash maqsadida, statistika organlari tomonidan respublika avtotransport kompleksining holati va rivojlanishini tavsiflovchi ishonchli, rasmiy axborotni taqdim etish uchun statistika kuzatuvlarini o'tkazishda, avtomobil transporti sohasida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni olishning asosiy jihatlari va usullarini belgilaydi.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur uslubiy Nizomda avtomobil transporti statistikasi bo'yicha statistika kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi, ma'lumotlarni shakllantirish uchun foydalaniladigan axborot manbalari, tasniflashlar, asosiy tushunchalar, atamalar, ularni aniqlash, shuningdek, alohida statistik ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.

2. Ushbu uslubiy Nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflardan foydalaniladi:

**avtomobil transporti** – yuridik va jismoniy shaxslar ishtirokidagi sanoat va texnologik majmua bo'lib, u yo'lovchilar, bagaj va yuklarni, shu jumladan pochta aloqasini (keyingi o'rinlarda yo'lovchilar, bagaj va yuklarni) avtotransport bilan ta'minlashda iqtisodiyot va aholining ehtiyojlarini qondiradi;

**umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti** – aholining va iqtisodiyotni barcha tarmoqlarining yo'lovchilar, bagajlar va yuklar, shu jumladan pochtalarni avtomobillarda tashishga bo'lgan ehtiyojlarini tijorat asosida ta'minlovchi transport;

**avtotransport vositalari** – yo'lovchilar, bagajlar, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, shatakchi-avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar;

**avtotransport vositalarining mavjudligi** – tashkilot balansida yoki boshqa qonuniy ravishda ularga tegishli bo'lgan, texnik holatidan va avtomobilning joylashgan joyidan (ta'mirlashda, xizmat safarida, konservatsiyada, ijarada) qat'iy nazar, barcha turdagi, markadagi va modeldagi avtomobillar soni;

**avtomobil** – energiya manbasi orqali harakatga keltiriladigan, ikkitadan kam bo‘lmagan o‘qda joylashgan kamida to‘rtta g‘ildirakka ega bo‘lgan, yo‘llarda harakatlanish uchun mo‘ljallangan va yo‘lovchilar, bagajlar, yuklarni tashish hamda maxsus ishlarni bajarish uchun foydalaniladigan mexanik transport vositasi;

**yo‘lovchi avtomobili** – o‘zining tuzilishi va jihozlanishi jihatidan yo‘lovchilar va bagajlarni tashishga mo‘ljallangan, zarur qulaylik va xavfsizlik bilan ta‘minlangan avtomobil;

**yuk avtomobili** – yuklarni tashishga mo‘ljallangan, qattiq ramali mexanik yo‘l transport vositasi; yuk avtotransport vositalari foydalanish xarakteri va konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va ixtisoslashtirilgan vositalarga bo‘linadi;

**avtobus, mikroavtobus** – yo‘lovchilarni tashishga mo‘ljallangan va haydovchi o‘rnini hisobga olmaganda sakkiztadan ortiq o‘tirish o‘rindig‘iga ega bo‘lgan, qattiq ramali mexanik yo‘l transport vositasi;

**yengil avtomobil** – haydovchi o‘rnini hisobga olmaganda, sig‘imi sakkiz kishigacha bo‘lgan yo‘lovchi avtomobili. Yengil avtomobillar soniga pochta tashishga mo‘ljallangan, sanitariya va boshqa maxsus yengil avtomobillar qo‘shilmaydi;

**yo‘nalishli taksi** – yo‘lovchilar talabiga ko‘ra to‘xtagan holda muntazam yo‘nalishlarda yo‘lovchilar tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositasi (avtobus yoki yengil avtomobil);

**yo‘nalishsiz taksi** – taksometr (hisoblagich)ning ko‘rsatkichi bo‘yicha to‘lov to‘lanadigan, yo‘lovchilar buyurtmanomalari bo‘yicha tashish xizmatlari ko‘rsatadigan avtotransport vositasi;

**pikap va yengil furgon** – kuzovi yengil avtomobil shassisiga moslashtirilgan, yuk ko‘tarish qobiliyati yuqori bo‘lmagan yuk va yuk-yo‘lovchi avtomobillari;

**tashilgan yuklar (yuk tashish hajmi)** – yuk avtomobillarida, shu jumladan avtotirkamalarda, tashilgan yuklar miqdori (pullik bagaj va pochta qo‘shgan holda) har bir qatnov uchun yukning tara yoki konteynerlar og‘irligini hisobga olgan holdagi haqiqiy og‘irligi bo‘yicha aniqlanadi (tonnada o‘lchanadi). Tashilgan yuk hajmini avtomobilning texnik tavsifnomasida ko‘rsatilgan yuk ko‘tarish qobiliyati bo‘yicha aniqlash, faqatgina tashilgan yukning haqiqiy og‘irligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bo‘lmagan hollardagina amalga oshirilishi mumkin;

**avtomobil transportning yuk aylanmasi** – transportning yuk tashish bo‘yicha ish hajmi o‘lchov birligi bo‘lib tonna – kilometr hisoblanadi. Tashilgan yukning har bir partiyasi (jo‘natilgan) og‘irligini uni tashilgan masofaga ko‘paytmasining yig‘indisi orqali aniqlanadi;

**tashilgan yo‘lovchilar** – ma‘lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo‘lib yo‘lovchi-qatnovi hisoblanadi);

**avtomobil transportning yo'lovchi aylanmasi** – yo'lovchining tashish masofasini hisobga olgan holda yo'lovchilarni tashish hajmini tavsiflovchi ko'rsatkich. Har bir tashish bo'yicha yo'lovchilar sonini tashish masofasiga ko'paytmasini yig'indisi orqali aniqlanadi. O'lchov birligi yo'lovchi-kilometr, ya'ni yo'lovchini 1 km masofaga ko'chirish;

**tashish masofasi** – ma'lum bir transport turida qatnov yo'li orqali obyektni jo'natish nuqtasidan belgilangan nuqtagacha tashish (transpartirovka qilish) masofasi (kilometrda o'lchanadi);

**yuklarni tashishning o'rtacha masofasi** – o'rtacha bir tonna yuk tashiladigan masofa. Butun avtotransport bo'yicha, alohida yuklar va qatnov turlari bo'yicha yuk aylanmasini (tonna-kilometrda) tashilgan yuklar hajmiga (tonnada) bo'lish orqali aniqlanadi;

**yo'lovchilarni tashishning o'rtacha masofasi** – o'rtacha bir yo'lovchi tashiladigan masofa. U butun avtotransport va qatnov turlari bo'yicha yo'lovchi aylanmasini (yo'lovchi-kilometrda) tashilgan yo'lovchilar soniga bo'lish orqali aniqlanadi;

**umumiy bosib o'tilgan masofa (kilometr)** – transport vositasining garajga (to'xtash joyiga) qaytishi va garajdan (to'xtash joyidan) chiqib ketishi vaqtidagi spidometr ko'rsatkichlari o'rtasidagi bir kunlik farqni ifodalaydi. Umumiy bosib o'tilgan masofa, hisobot davri mobaynida barcha foydalanilayotgan avtomobillarning har kunlik bosib o'tgan masofalarini yig'indisi orqali aniqlanadi;

**pullik bosib o'tilgan masofa** – yo'nalishsiz taksining yo'lovchi bilan birga bosib o'tgan masofasi;

**bosib o'tilgan masofadan foydalanish koeffitsiyenti** – yuk avtomobillari va yo'lovchi avtotransportlarning yuk va yo'lovchi bilan bosib o'tilgan masofani, mos ravishda, umumiy bosib o'tilgan masofaga nisbati orqali aniqlanadi;

**avtomobil parkidan foydalanish koeffitsiyenti** harakatdagi tarkibning ishda bo'lish avtomobil-kunlarini uning xo'jalikda bo'lgandagi avtomobil-kunlariga nisbati orqali aniqlanadi;

**yuk ko'tarish qobiliyati (yo'lovchi sig'imi)dan foydalanish koeffitsiyenti** (nominal yuk ko'tarish qobiliyati (yo'lovchi sig'imi)dan foydalanish darajasi) – tashilgan yuklar (yo'lovchilar) sonini avtomobilning texnik tavsifnomasi bo'yicha nominal yuk ko'tarish qobiliyati (yo'lovchi sig'imi)ga nisbati orqali aniqlanadi;

**avtomobilning ishda bo'lish kunlari (avtomobil-kunlari soni)** – hisobot davrida garajdan (to'xtash joyidan) yo'nalishga chiqarilgan avtomobillar soniga mos bo'ladi. Uning hisobi, bir kun davomida amalga oshirilgan qatnovlar sonidan va avtomobilning ish soatlari miqdoridan qat'iy nazar yuritiladi. Avtomobil bir kalendar kunida bir martadan ko'p yo'lga chiqarilsa, ishda bo'lish avtomobil-kunlarini hisoblashda ushbu avtomobil bir marta hisobga olinadi;

**shahardagi tashuvlar** – shahar va shaharchalar hududidan chiqmagan holda amalga oshiriladigan tashuvlar;

**shahar atrofidagi tashuvlar** – shahar va shaharchalar hududi chegarasidan tashqariga ellik kilometr bo‘lgan masofagacha amalga oshiriladigan tashuvlar;

**shaharlararo tashuvlar** – shahar va shaharchalar hududi chegarasidan tashqariga ellik kilometrdan ko‘proq bo‘lgan masofaga amalga oshiriladigan tashuvlar, shuningdek masofaning uzunligidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining ikki va undan ortiq viloyatlari hududida amalga oshiriladigan tashuvlar;

**xalqaro tashuvlar** – masofaning uzunligidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasidan tashqariga yoki davlat chegarasidan ichkariga amalga oshiriladigan tashuvlar.

## **2-bob. Ma’lumotlarni qamrab olish, qamrov darajasi**

3. Avtomobil transport statistikasi kuzatuv obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

Iqtisodiy faoliyat turlaridan qat’iy nazar avtomobil transportida yuk va yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar, yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari, alohida balansga ega bo‘lganlar;

tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslar.

4. Yuklarni tashish va yo‘lovchilarni tashish faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni statistik kuzatuvlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘z o‘zini band qilgan jismoniy shaxslarni tanlanma statistika so‘rovnomalari orqali qamrab olinishi davlat statistika kuzatuvlari birliklarining yig‘indisini shakllantirish statistika registri va soliq organlarining ma’lumotlari asosida har chorakda va har yili statistika organlari tomonidan amalga oshiriladi.

5. Tanlov mezonlari: balansdagi yoki ijaraga olingan avtotransport vositalarining mavjudligi, yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakli, yuridik shaxsning mansubligi.

6. Transport sohasidagi statistik kuzatuvlar va so‘rovlarning respondentlari bo‘lib yuridik shaxslar, ularning alohida balansga ega bo‘lgan alohida bo‘linmalari, tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

7. Avtomobil transportida yuk tashish va yuk aylanmasi, yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi hajmlari to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar har chorakda, yakuniy ma’lumotlar – yilida bir marta shakllantiriladi.

Avtomobil transportining moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yillik davriyligi asosida shakllantiriladi.

### **3-bob. Statistik kuzatuvning tashkiliy shakli.**

8. Transport tashkilotlari faoliyatining statistik kuzatuvlari quyidagi shakllar asosida amalga oshiriladi:

statistika organlariga belgilangan tartibda respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistik hisobotlar va tanlanma kuzatuvlar;

idoraviy statistik kuzatuvlar;

ma'muriy ma'lumotlar.

### **4-bob. Statistik kuzatuvlari instrumentlari va dasturi**

9. Statistik va idoraviy hisobotlarning quyidagi shakllari statistik kuzatuvlarini o'tkazish vositasi hisoblanadi:

avtomobil transporti statistikasi bo'yicha:

*taqdim etish davriyligi yillik:*

1 avto shakli "Avtomobil transporti va xo'jalik yo'llari uzunligi to'g'risidagi hisobot";

1 kb shakli "Mikrofirma va kichik korxona hisoboti";

1 notijorat shakli "Notijorat tashkiloti faoliyati to'g'risidagi hisobot";

*taqdim etish davriyligi choraklik:*

4 avto shakli "Avtomobil transporti ishi to'g'risida hisobot";

4 tr (yat) shakli "Shaxsiy avtotransport egalarining tashish faoliyati to'g'risida so'rovnoma" tanlanma so'rovnoma natijalari;

### **5-bob. Avtomobil transporti faoliyatining statistik hisobi**

10. Ishlab chiqarish faoliyati xususiyati bo'yicha avtomobil transporti tashkilotlari statistika hisobi tizimida quyidagilarga bo'linadi:

asosiy faoliyati tijorat asosida yuk (shartnoma va buyurtma bo'yicha) va yo'lovchi (avtobus va mikroavtobuslar, yo'nalishli va yo'nalishsiz taksilar bilan) tashish bo'lgan avtotransport vositalaridan foydalanuvchi tashkilotlar;

asosiy faoliyat turi bo'lmagan holda, tijorat asosida yuk va yo'lovchi tashishlarni, shuningdek mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari bilan bog'liq yuk tashishlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar.

11. Tashkilotlarning avtomobil transporti faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi yo'riqnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

## 6-bob. Avtotransport faoliyati ko'rsatkichlarini shakllantirish

12. Avtotransportning yuk (yo'lovchi) tashish va yuk (yo'lovchi) aylanmasi hajmi tashish faoliyati bilan shug'ullanadigan quyidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar kategoriyalari bo'yicha alohida shakllantiriladi:

**yirik tashkilotlar** ( $V_k$  - yuk, yo'lovchi tashish;  $P_k$  - yuk aylanmasi, yo'lovchi aylanmasi);

**kichik korxona va mikrofirmalar** ( $V_m$  - yuk, yo'lovchi tashish;  $P_m$  - yuk aylanmasi, yo'lovchi aylanmasi);

**notijorat tashkilotlar** ( $V_n$  - yuk, yo'lovchi tashish;  $P_n$  - yuk aylanmasi, yo'lovchi aylanmasi);

**yakka tartibdagi tadbirkorlar** (avtotransport vositalari egasi bo'lgan jismoniy shaxslar) ( $V_i$  - yuk, yo'lovchi tashish;  $P_i$  - yuk aylanmasi, yo'lovchi aylanmasi).

13. Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar turlarini hisobga olgan holda, avtotransportning yuk (yo'lovchi) tashish ( $V$ ) va yuk (yo'lovchi) aylanmasi ( $P$ ) umumiy hajmi quyidagi formulalar asosida aniqlanadi:

$$V = V_k + V_m + V_n + V_i, \quad (1)$$

$$P = P_k + P_m + P_n + P_i. \quad (2)$$

14. O'ziga tegishli yoki ijaraga olingan avtomobillarda tashishlarni amalga oshiruvchi yirik tashkilotlar bo'yicha yuk va yo'lovchi tashishning asosiy ko'rsatkichlarini statistik hisobi, yillik statistika kuzatuvlari bo'yicha yalpi usulda, choraklik bo'yicha – tsenz usuli (5 tadan ortiq avtomobillarga ega bo'lganlar) bilan amalga oshiriladi.

15. Yirik tashkilotlar bo'yicha choraklik ma'lumotlar quyidagi formulalar bo'yicha aniqlanadi:

$$V_k = V_1 + V_2 \quad (3)$$

$$P_k = P_1 + P_2, \quad (4)$$

bu yerda, choraklik statistika hisobotiga asosan 5 tadan ortiq avtomobillarga ega bo'lgan yirik tashkilotlarning  $V_1$ – yuk (yo'lovchi) tashishi;  $P_1$ – yuk aylanmasi (yo'lovchi aylanmasi);

5 va undan kam bo'lgan avtomobillarga ega bo'lgan yirik tashkilotlarning ushbu uslubiy Nizomning 7- bobida keltirilgan usullardan foydalangan holda baholangan  $V_2$  – yuk (yo'lovchi) tashishi;  $P_2$  - yuk (yo'lovchi) aylanmasi.

16. O'ziga tegishli va ijaraga olingan avtomobillarda tashish faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalarning avtomobil transporti ishi to'g'risidagi ma'lumotlar unifikatsiyalashtirilgan yillik statistika hisoboti ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi.

Mikrofirma va kichik korxonalar tashish faoliyatining choraklik hajmini baholash ushbu uslubiy Nizomning 8- bobida keltirilgan usullardan foydalangan holda baholanadi.

17. Tashish faoliyatini amalga oshirayotgan notijorat tashkilotlarining avtomobil transporti ishi to'g'risidagi ma'lumotlar notijorat tashkilotlari uchun unifikatsiyalashtirilgan yillik statistika hisoboti ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi.

Notijorat tashkilotlari tashish faoliyatining choraklik hajmini baholash ushbu uslubiy Nizomning 9- bobida keltirilgan usullardan foydalangan holda baholanadi.

18. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarning tashish faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar, har chorakda, 10- bobida keltirilgan hisob-kitoblar asosida, quyidagi ma'lumotlardan foydalangan holda shakllantiriladi:

tashishlar bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning har choraklik tanlanma kuzatuv ma'lumotlari;

O'zbekiston Respublikasi IIV JXD Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining hududiy organlarida (keyingi o'rinlarda IIBB YHXB deb yuritiladi) ro'yxatga olingan, avtomobil turlari bo'yicha shaxsiy egalikdagi avtotransport vositalari soni to'g'risidagi ma'lumotlar.

Avtotransport faoliyatining statistik ma'lumotlarini shakllantirish sxemasi uslubiy Nizomning 1- ilovasida keltirilgan.

19. Yo'nalishsiz taksilarda tashilgan yo'lovchilar soni to'lovli bosib o'tilgan masofani yo'lovchilarning o'rtacha soniga ko'paytirish va yo'lovchilar tashishning o'rtacha masofasiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi.

Yo'nalishsiz taksida tashilgan yo'lovchilarning o'rtacha soni:

shahar yo'nalishida — 2 nafarga;

shahar atrofidagi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda – 4 nafarga teng holda qabul qilinadi.

$$V_t = (F \times Q/S) \times Z/1000, \quad (5)$$

bu erda:  $V_t$  – yo'nalishsiz taksilarda tashilgan yo'lovchilar soni (tashilgan yo'lovchilar) (ming kishi);

$F$  – bir yilda to'lovli bosib o'tilgan masofa (km);

$Q$  – o'rtacha yo'lovchilar soni (kishi);

$S$  – yo'lovchilar tashishning o'rtacha masofasi (km);

$Z$  – bir yilda ish kunlar soni.

20. Agarda avtomobil transportida yo'lovchilar tashishning o'rtacha masofasi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 17- sentabrdagi 273- son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida yo'lovchilar aylanmasini va umumiy foydalaniladigan avtomobil va elektr transportida shaharda, shahar atrofida,

shaharlararo, xalqaro yo‘nalishlarda hamda soatlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar sonini aniqlash tartibi to‘g‘risida Nizom”ning 18- bandi 1- ilovasiga va O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining taklifiga muvofiq yo‘lovchilar tashishning o‘rtacha masofasi quyidagicha belgilandi:

shahar yo‘nalishida – 10,95 km;

shahar atrofidagi yo‘nalishda – 21,67 km;

shaharlararo viloyat ichi yo‘nalishda – 84,67 km;

shaharlararo viloyatlararo yo‘nalishda – 326,61 km;

xalqaro yo‘nalishlarda – 772,1 km teng holda.

21. Yo‘nalishsiz taksi bo‘yicha yo‘lovchilar aylanmasi tashilgan yo‘lovchilar sonini to‘lov to‘lab yuriladigan kilometrlarga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi.

$$P = V \times S, \quad (6)$$

бу ерда:  $P$  – йўловчи айланмаси,

$V$  - yo‘lovchilar sonini to‘lov to‘lab yuriladigan,

$S$  - kilometrlarga ko‘paytirish yo‘li.

### **7-bob. Yirik tashkilotlar avtotransport faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini baholash**

22. Transport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yirik tashkilotlarning asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun asos bo‘lib, 4 avto “Avtomobil transporti faoliyati to‘g‘risida hisobot” choraklik statistik hisobot ma’lumotlari va yillik statistik hisobot ko‘rsatkichlari asosida hisoblangan taxminiy ma’lumotlar 1 avto “O‘tgan yil uchun avtomobil transporti va iqtisodiy yo‘llarning uzunligi bo‘yicha hisobot” (Iqtisodiy faoliyat turlaridan qat’iy nazar avtomobil transportida yuk va yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar, yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari, alohida balansga ega bo‘lganlar);

23. 5 va undan kam avtomobilga ega bo‘lgan yirik tashkilotlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarni baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

a) 5 tadan ko‘p avtomobillarga ega bo‘lgan avtotransport tashkilotlari bo‘yicha, ushbu tashkilotlarning ( $U_1$ ) yillik tashuvlarning umumiy hajmidagi ulushi quyidagi formula bo‘yicha hisoblash orqali aniqlanadi:

$$U_1 = V_1 / V_k \times 100, \text{ yoki } 100 - U_2 \quad (7)$$

b) 5 va undan kam avtomobilga ega bo‘lgan tashkilotlar asosiy yillik ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan holda, ushbu tashkilotlarning ( $U_2$ ) yillik tashuvlarning umumiy hajmidagi ulushi aniqlanadi va u quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$U_2 = V_2 / V_k \times 100 \quad (8)$$

v) 5 va undan kam avtomobilga ega bo'lgan tashkilotlarning tashuvlari bo'yicha baholash koeffitsiyenti ( $K_o$ ) 5 tadan ko'p avtomobillarga ega bo'lgan tashkilotlar hamda 5 va undan kam avtomobilga ega bo'lgan tashkilotlarning yillik yuk tashuvlari hajmining o'zaro nisbati orqali, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi,

$$K_o = (U_2 \times I_2) / (U_1 \times I_1), \quad (9)$$

bu yerda,  $I_2$ – 5 va undan kam avtomobilga ega bo'lgan yirik tashkilotlar bo'yicha yuk tashuvlari hajmining o'sish (pasayish) sur'ati;

$I_1$  – 5 tadan ko'p avtomobilga ega bo'lgan yirik tashkilotlar bo'yicha yuk tashuvlari hajmining o'sish (pasayish) sur'ati;

g) tashuvning o'rtacha masofasi ( $D_2$ ) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$D_2 = P_2 / V_2 \quad (10)$$

Yuklar va yo'lovchilarni ( $V_2$ ) tashishning o'rtacha masofasi, hisobot yili davomida choraklik hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun qo'llaniladi.

Statistika hisobotlaridan kelib chiqqan holda, alohida ko'rsatkichlarning doimiy koeffitsiyentlari va qiymatlarini hisoblash sxemasi uslubiy Nizomning 2- ilovada keltirilgan.

24. 5 va undan kam avtomobilga ega bo'lgan tashkilotlarning yuklar va yo'lovchilarni tashish hajmlarini chorak uchun hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$V_2 = V_1 \times K_o \quad (11)$$

25. Choraklik yuk va yo'lovchi aylanmasini hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$P_2 = V_2 \times D_2 \quad (12)$$

Yirik tashkilotlarning avtotransport faoliyati asosiy ko'rsatkichlarini baholash namunasi uslubiy Nizomning 3-ilovada ko'rsatilgan.

### **8-bob. Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash va baholash**

26. Tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash uchun unifikatsiyalashtirilgan 1 kb shakli "Mikrofirma va kichik korxonalarning" yillik hisobotining ma'lumotlari asos bo'lib hisoblanadi.

27. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari chorakning oxirgi oyida o'tkazilishi munosabati bilan, joriy chorakning tanlanma kuzatuv ma'lumotlari olingunga qadar kichik korxona

va mikrofirmalar tomonidan tashilgan yuk (yo‘lovchi) hamda yuk aylanmasi (yo‘lovchi aylanmasi) o‘rtacha chorak hajmi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$V_m = (V_{m-1}/3) \times K_c, \quad (13)$$

bu yerda,  $V_{m-1}$  – to‘g‘rilash ko‘effitsiyentini hisobga olgan holdagi jami to‘plamga joriy etilgan oldingi chorak uchun tanlanma kuzatuv ma‘lumotlari;

$K_c$  – anketaga kiritilgan o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan iqtisodiy holatning “yaxshilanish”i yoki “yomonlashish”ishini baholovchi ko‘rsatkichlar asosida hisoblangan to‘g‘rilash ko‘effitsiyenti.

28. To‘g‘rilash ko‘effitsiyenti quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_c = \frac{\bar{I}_n}{100} \times D_n, \quad (14)$$

bu yerda,  $D_n$  – yaqin uch oyda yaxshilanish istiqboliga ega bo‘lgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi;

$\bar{I}_n$  – avvalgi uch yil uchun joriy chorakda yuklar (yo‘lovchilarni) tashish hamda yuk (yo‘lovchi) aylanmasini hajlarining o‘tgan chorakka nisbatan o‘zgarish indeksini o‘rtacha miqdori (foizlarda) quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\bar{I}_{n\text{ ke}} = \sqrt[3]{I_{t_1} \times I_{t_2} \times I_{t_3}}, \quad (15)$$

bu yerda,  $I_{t_1}, I_{t_2}, I_{t_3}$  – avvalgi uch yil uchun kichik korxona va mikrofirmalar yuklar (yo‘lovchilarni) tashish hamda yuk (yo‘lovchi) aylanmasini hajmlarining joriy chorakning o‘tgan chorakka nisbatan o‘zgarish indeksi.

To‘g‘rilash ko‘effitsiyentini hisoblash namunasi uslubiy Nizomning 4- ilovasida keltirilgan.

## **9-bob. Notijorat tashkilotlari**

### **bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblash va baholash**

29. Tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi notijorat tashkilotlarning asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun unifikatsiyalashtirilgan 1 notijorat shakli “Notijorat tashkilotlarining faoliyati to‘g‘risida” yillik hisobotning quyidagi ma‘lumotlari asos bo‘lib hisoblanadi:

o‘ziga tegishli avtomobillarning turlari bo‘yicha soni (yuk avtomobillari, avtobuslar, yo‘nalishli taksilarni qo‘shgan holda, yengil avtomobillar, yo‘nalishsiz taksilarni qo‘shgan holda);

ko‘rsatilgan avtomobillarning yuk ko‘tarish qobiliyati va yo‘lovchi sig‘imi;

umumiy bosib o'tilgan masofalar;

turlari bo'yicha, o'ziga tegishli, ijaraga olingan, shu jumladan jismoniy shaxslardan ijaraga olingan avtomobillar soni.

30. "Yuk tashish", "yo'lovchi tashish", "yuk aylanmasi" va "yo'lovchi aylanmasi" ko'rsatkichlarini shakllantirish, o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan avtomobillari mavjud har bir tashkilot bo'yicha, ushbu uslubiy Nizomning 31-35- bandlarida ko'rsatilgan hisoblash usullari asosida, maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Notijorat tashkilotlarning faoliyatini baholash uchun foydalaniladigan ayrim ko'rsatkichlarning doimiy koeffitsiyentlari va miqdorlarini hisoblash sxemasi uslubiy Nizomning 5- ilovasida keltirilgan.

Notijorat tashkilotlari avtotransport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini yillik hisoblash bo'yicha algoritm uslubiy Nizomning 6- ilovada keltirilgan.

31. Yuk avtomobillarining yuk aylanmasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$P_{gn} = F_{gn} \times K_{fg} \times M_{gn} \times K_m; \quad (16)$$

bu yerda,  $P_{gn}$  – notijorat tashkilotlari avtomobillarining yuk aylanmasi;

$F_{gn}$  – yuk avtomobillarini hisobot davridagi umumiy bosib o'tgan masofasi, km;

$K_{fg}$  – bosib o'tilgan masofadan foydalanish koeffitsiyenti;

$M_{gn}$  – yuk avtomobillarining nominal yuk ko'tarish qobiliyati – avtomobilning texnik tavsifnomasida ko'rsatilgan tashiladigan yuk massasi, tonna;

$K_m$  – yuk ko'tarish qobiliyatidan foydalanish koeffitsiyenti.

Bosib o'tilgan masofadan va yuk ko'tarish qobiliyatidan foydalanish koeffitsiyentlari, yirik tashkilotlar taqdim etadigan umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti faoliyati to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida aniqlanadi (uslubiy Nizomning 2 va 5- ilovalar).

32. Avtomobilda tashilgan yuk hajmi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_{gn} = \frac{P_{gn}}{D_{gn}}, \quad (17)$$

bu yerda,  $V_{gn}$  – notijorat tashkilotlari avtomobillarida tashilgan yuklar hajmi;

$D_{gn}$  ma'lum hududdagi shahar ichi va shahar atrofi yo'nalishlarida umumiy foydalanishdagi avtomobil transportining hisobot ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan yuk tashishning o'rtacha masofasi (uslubiy Nizomning 5- ilovasi).

33. Bundan tashqari, yuk avtomobillarining bajargan yuk tashish va yuk aylanmasi hajmlarini hisoblash uchun, O'zbekiston Respublikasi transport vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Yuk avtomobillaarining vaqtbay asosida bajargan yuk tashish va yuk aylanmasi hajmlarini aniqlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar"ining 2, 3 va 5-ilovalariga muvofiq, vaqtbay ishlaydigan yuk avtomobilining ish vaqtidagi bir avtomobil-soatiga yukning tonnada hisoblab chiqarilgan unumdorligi va yuk tashishning kilometrlardagi o'rtacha masofasi ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkin.

34. Yo'lovchi aylanmasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_{pn} = F_{pn} \times L_{pn} \times K_f \times K_l, \quad (18)$$

bu yerda,  $P_{pn}$  – notijorat tashkilotlari avtomobillarining yo'lovchi aylanmasi;

$F_{pn}$  – yo'lovchi avtomobillarining hisobot davridagi umumiy bosib o'tgan masofasi, km;

$L_{pn}$  – yo'lovchi avtomobillarining nominal yo'lovchi sig'imi – avtomobilning texnik tavsifnomasida ko'rsatilgan o'rindiqlar soni, o'rin.

Bosib o'tilgan masofadan foydalanish ( $K_f$ ) hamda yo'lovchi sig'imi ( $K_l$ ) koeffitsiyentlari ko'paytmasi 0,65 ga teng deb olinadi.

Yengil avtomobillar yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmi, avtomobilning 2 yo'lovchiga teng deb qabul qilingan o'rtacha yuklamasidan kelib chiqib aniqlanadi.

35. Tashilgan yo'lovchilar hajmi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_{pn} = \frac{P_{pn}}{D_p}, \quad (19)$$

bu yerda,  $V_{pn}$  – notijorat tashkilotlari avtomobillarida tashilgan yo'lovchilar hajmi;

$D_p$  – avtobuslar, mikroavtobuslar, yengil avtomobillar uchun yo'lovchi tashishning o'rtacha masofasi – umumiy foydalanishdagi avtotransport tashkilotlarining hisobot ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda, tegishli transport turlarining o'rtacha qatnovi masofasi bo'yicha aniqlanadi.

Notijorat tashkilotlari avtotransport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash namunasi 6-ildavda ko'rsatilgan.

36. Qonun hujjatlariga asosan yuridik shaxslardan tijorat asosida yo'lovchi va yuk tashishga litsenziya kartochkasini olgan jismoniy shaxslar faoliyati, soatbay tashish faoliyati doirasida ko'rib chiqiladi.

Bu ko'rsatkichlarni hisoblash va baholash 31-35 va 37, 38-bandlarda ko'rsatilgan usullarda amalga oshiriladi.

37. Har chorakda, notijorat tashkilotlarining tashuvlari bo'yicha hisobot choragi uchun baholash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$V_n = V_k \times K_n, \quad (20)$$

bu yerda,  $K_n$  – yillik statistika hisoboti ma'lumotlari asosida hisoblangan, notijorat tashkilotlarining yillik tashish hajmlarini yirik tashkilotlarning yillik tashish hajmiga nisbati koeffitsiyenti (5-ilova).

Koeffitsent quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K_n = \frac{U_n \times I_n}{U_k \times I_k}, \quad (21)$$

bu yerda  $I_k$  – yirik tashkilotlar tashish hajmining yillik o'sish (kamayish) sur'ati;

$I_n$  – notijorat tashkilotlari tashish hajmining yillik o'sish (kamayish) sur'ati;

$U_n$  - notijorat tashkilotlari tashuvining yirik tashkilotlarning yillik umumiy yuk (yo'lovchi) tashish hajmidagi ulushi va u quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$U_n = \frac{V_n}{V_k + V_n} \times 100, \quad (22)$$

bu yerda,  $U_k$  – yirik tashkilotlar tashuvining yillik umumiy yuk (yo'lovchi) tashish hajmidagi ulushi va u quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$U_k = \frac{V_k}{V_k + V_n} \times 100, \quad (23)$$

Koeffitsiyent ( $K_n$ ) hisobot yili davomida o'zgarmas miqdor sifatida qo'llaniladi.

38. Choraklik yuk va yo'lovchi aylanmasini baholash quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$P_n = V_n \times D_g, \text{ ulu } (D_p), \quad (24)$$

bu yerda,  $D_g$ ,  $D_p$  – ma'lum hududdagi shahar ichi va shahar atrofi yo'nalishlarida umumiy foydalanishdagi avtomobil transportining ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan yuk va yo'lovchi tashishning o'rtacha masofasi.

Notijorat tashkilotlarining avtomobil transporti faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini baholash namunasi 8-ilovada keltirilgan.

### **10-bob. Shaxsiy avtotransport vositalari egalari – jismoniy shaxslarning avtotransport faoliyatini baholash**

39. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarning avtotransport tashuvlari hajmini statistik baholash uchun, ularning tashish faoliyati (har bir avtotransport turi bo'yicha bir kunda bitta

avtomobilning o'rtacha ish hajmi) hamda hisoblash uchun qabul qilingan avtomobillar soni to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Tijorat asosida tashishni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarning faoliyatini hisoblash uchun, ular faoliyati bo'yicha statistika ishlari dasturiga muvofiq maxsus reja-jadvalga ko'ra o'tkaziladigan choraklik tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qiladi.

40. Statistik kuzatuv o'tkaziladigan obyektlarni tanlab olishni shakllantirish ishlari bir nechta bosqichda amalga oshiriladi;

a) *birinchi bosqichda* hududiy statistika bo'limlari tomonidan har bir aholi punkti bo'yicha avtoturargohlar joyining yalpi hisobi o'tkaziladi:

yuk yoki yo'lovchi avtomobillari;

shahar, shahar atrofi va shaharlararo yo'nalishlardagi tashish xizmatlari;

b) *ikkinchi bosqichda* kuzatuv joylari quyidagi tashish xizmatlarini ko'rsatuvchilar guruhlariga bo'linadi:

shahar va shahar atrofi yo'nalishlaridagi yuklar;

shaharlararo yo'nalishlardagi yuklar;

shahar va shahar atrofi yo'nalishlaridagi yo'lovchilar;

shaharlararo yo'nalishlardagi yo'lovchilar;

v) *uchinchi bosqichda* yuqorida qayd etilgan tashish xizmatlarini ko'rsatuvchilar guruhi bo'yicha har bir hudud bo'yicha kuzatuv obyektlarini tanlash xolis tanlov asosida amalga oshiriladi.

Masalan, avtoturargohda yuk tashish bilan shug'ullanuvchi 10 ta yuk mashinasi mavjud ulardan 7 tasi yuk ko'tarish qobiliyati 3 tonnagacha bo'lgan, 3 tasi yuk ko'tarish qobiliyati 5 tonnagacha bo'lgan avtomobillar, shuning uchun 30 % li tanlashga muvofiq, yuk ko'tarish qobiliyati 3 tonnagacha bo'lgan 2 ta va yuk ko'tarish qobiliyati 5 tonnagacha bo'lgan 1 ta avtomobilni kuzatish kerak. Yo'lovchi avtomobillarni tanlash xuddi shu tarzda o'tkaziladi: agar avtoturargohda 26 ta avtomobil mavjud bo'lsa (10 ta "Damas" rusumli va 16 ta yengil avtomobil), shunda 3 ta "Damas" rusumli avtomobilni va 5 ta yengil avtomobilni kuzatish kerak.

Tanlanma kuzatuvni o'tkazish davomida jamoat transporti to'xtash joylarida, bozor va vokzallar hududlarida, savdo markazlarining, aeroportlarning transport to'xtash joylarida, aholi ko'p to'planadigan joylarda, ko'p qavatli uylar oldida va boshqa joylardagi tashish faoliyatini (ruxsatnoma bilan va ruxsatnomasiz) amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarning umumiy sonidan 30 % gacha qamrab olinib kuzatuv o'tkaziladi.

41. Yuk va yo'lovchi tashish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi va hisob-kitoblar uchun qabul qilinadigan yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobillari soni, IIBB YHXBning hududiy organlarida ro'yxatga olingan avtomobillar soni to'g'risidagi ma'lumotlardan kelib chiqib, yuridik shaxslar tomonidan ijaraga olinganlarini chiqarib tashlagan holda aniqlanadi:

$$N_i = N_z - N_{fk} - N_{fm}, \quad (25)$$

bu yerda,  $N_i$  – hisoblash uchun qabul qilinadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarning avtomobillari soni;

$N_z$  – ro‘yxatga olish ma’lumotlari bo‘yicha jismoniy shaxslarning avtomobillari soni;

$N_{fk}$  – yirik tashkilotlar tomonidan jismoniy shaxslardan ijaraga olingan avtomobillar soni;

$N_{fm}$  – kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan jismoniy shaxslardan ijaraga olingan avtomobillar soni.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarning avtomobillari soni yuk ( $N_g$ ) va yo‘lovchi ( $N_p$ ) avtomobillari bo‘yicha, “Damas” rusumli avtomobillarni ajratgan holda hisoblanadi.

42. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarning faoliyatini tanlanma kuzatuv ma’lumotlari bo‘yicha quyidagilar aniqlanadi:

$W_i$  – har bir avtotransport turi bo‘yicha bir kunda bitta avtomobil uchun hisoblab topilgan o‘rtacha ish hajmi;

$RD_i$  – har bir avtotransport turi bo‘yicha hisobot davridagi ish kunlari soni;

$D_i$  – bir tonna yuk va bitta yo‘lovchi tashishning o‘rtacha masofasi.

Avtotransport egalari bo‘lgan jismoniy shaxslar avtotransport faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini choraklik hisoblash sxemasi 9- ilovada keltirilgan.

Yuk va yo‘lovchi avtomobillari parkidan foydalanish koeffitsiyenti davlat statistika hisobotining yillik ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadi (10-ilova).

43. Hisobot davrida yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarning avtotransport vositalari orqali tashilgan yuk ( $V_{gi}$ ) quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$V_{gi} = W_{gi} \times K_t \times N_{gi} \times RD_{gi}, \quad (26)$$

bu yerda,  $W_{gi}$  – kuzatuv ma’lumotlari bo‘yicha bir kunda bitta yuk avtomobiliga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ish hajmi;

$RD_{gi}$  – kuzatuv ma’lumotlari bo‘yicha yuk avtomobillarining ish kunlari soni.

Tanlanma kuzatuv ma’lumotlari bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarning yuk tashish va yuk aylanmasini hisoblash 9-ilovada ko‘rsatilgan.

Hisoblashdagi xatoliklarni kamaytirish maqsadida, tanlanma kuzatuv bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarning bitta yuk avtomobiliga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ish mahsuli

( $W_{gi}$ ) to'g'risidagi ma'lumotlar yillik statistika hisobotlari ma'lumotlari bo'yicha yirik tashkilotlarning bitta yuk avtomobiliga to'g'ri keladigan o'rtacha ish hajmi bilan quyidagi formula bo'yicha solishtiriladi:

$$W_g = V_{gr}/N_{gr}/RD_d, \quad (27)$$

bu yerda,  $W_g$  – statistika hisoboti ma'lumotlari bo'yicha bir kunda bitta yuk avtomobiliga to'g'ri keladigan o'rtacha ish hajmi;

$V_{gr}$  – hudud bo'yicha tashilgan yuk;

$N_{gr}$  – hudud bo'yicha yuk tashishni amalga oshiruvchi tashkilotlarning yuk avtomobillari soni;

$RD_d$  – hisobot davridagi ish kunlari soni.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarning yuk tashuvini statistika hisoboti ma'lumotlari bilan solishtirma hisoblash 11-ildavda keltirilgan.

44. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarning hisobot davridagi yuk aylanmasi ( $P_{gi}$ ) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_{gi} = V_{gi} \times D_{gi}, \quad (28)$$

bu yerda,  $V_{gi}$  – yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarning avtotransport vositalari bilan hisobot davrida tashilgan yuk.

Solishtirish maqsadida, yuk aylanmasi ( $D_{gk}$ )ni tashilgan yuk hajmi ( $V_{gk}$ )ga bo'lish orqali, choraklik statistika hisoboti ma'lumotlari bo'yicha yirik tashkilotlarning o'rtacha tashish masofasi ( $D_{gk}$ ) quyidagicha hisoblanadi:

$$D_{gk} = P_{gk}/V_{gk}. \quad (29)$$

45. Hisobot davrida jismoniy shaxslar tomonidan yengil avtomobillarda tashilgan yo'lovchilar soni ( $V_{pi}$ ) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V_{pi} = W_{pi} \times N_{pi} \times k \times RD_{pd}, \quad (30)$$

bu yerda,  $W_{pi}$  – kuzatuv ma'lumotlari bo'yicha bir kunda bitta yengil avtomobilga to'g'ri keladigan o'rtacha ish hajmi;

$k$  = (0,05 dan 0,15 gacha) – egalari tijorat tashishlarini ruxsatnomasiz amalga oshiruvchi shaxsiy yengil avtomobillarning hisoblash uchun qabul qilingan jami shaxsiy yengil avtomobillar soniga nisbatan baholash yo'li bilan aniqlangan ulushi;

$RD_{pd}$  – kuzatuv ma'lumotlari bo'yicha yengil avtomobillarning ish kunlari soni.

46. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarning avtotransport vositalarining hisobot davridagi yo'lovchi aylanmasi ( $P_{pi}$ ) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$P_{pi} = V_{pi} \times D_{pi}, \quad (31)$$

$D_{pi}$  – tanlanma kuzatuv ma'lumotlari bo'yicha yo'lovchi tashishning o'rtacha masofasi.

Tanlanma kuzatuv ma'lumotlari bo'yicha yakka tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarning yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasini hisoblash 12-ilovada keltirilgan.

### 11-bob. Yakuniy qoidalar

47. Avtotransport faoliyati ko'rsatkichlarini aniqlashtirilgan hisob-kitoblari o'tgan yil yakunlari bo'yicha, hududlar (viloyat, respublika)ning kerakli ma'lumotlar bazasi to'liq hajmda shakllangandan so'ng amalga oshiriladi. Olingan o'zaro nisbatlardan yil davomida foydalanish mumkin.

48. Amaldagi uslubiy Nizom asosida hisoblangan asosiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlardan statistik maqsadlarda respublika hududlarida avtotransport infratuzilmasining rivojlanishidagi mavjud vaziyatni aniqlashda axborot manbai sifatida foydalanish mumkin.

49. Transport sohasi ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlar sud-huquqiy nizolarni hal qilish, davlat xaridlarini amalga oshirish, savdo bitimlari to'g'risida qarorlar qabul qilish va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallanmagan.


50. Nashrlar va rasmiy xabarlarda transport sohasining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar butun raqamdan so'ng verguldan keyin bitta o'nlik belgi bilan joylashtiriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Transport to'g'risida"gi qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>), 2021- y. 3- mart.
2. O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil transporti to'g'risida"gi qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>), № 9, 175- modda, 1998- y. 29- avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining "Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida"gi qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>), № 4-5, 125- modda, 1997- y. 25- aprel.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/>), 2018- y. 22- yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Avtomobil transportida yo'lovchilar tashish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining alohida turlarini amalga oshirishni tartibga solish to'g'risida" 2006- yil 9- martdagi PQ-303- son qarori (<https://lex.uz/>) № 9, 76- modda.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6- martdagi "Yuk va yo'lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4230-son qarori (<https://lex.uz/>), 2011- y. 18- may.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yo'nalishsiz taksilar faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" 2011- yil 18- maydagi 139- son qarori (<https://lex.uz/>).
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida umumiy foydalanishdagi avtomobil va elektr transportida shahar, shahar atrofi, shaharlararo, xalqaro yo'nalishlar va soatbay transportda tashilgan yo'lovchilar sonini aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom" 2012- yil 17- sentabrdagi 273- son qaroriga 1- ilova (<https://lex.uz/>).
9. "Yo'l transporti. Asosiy atamalar va ta'riflar. Tasniflash", Davlatlararo standart 31286-2005 (<https://gost-snip.su/>).
10. Yo'l varaqalarini tayyorlash, hisobga olish, to'ldirish va qayta ishlash, tashuvchilarning yuk avtomobillari uchun tovar-transport yuk vagonlarini tayyorlash bo'yicha qo'llanma (2004- yil 2- iyuldagi ro'yxat raqami 1382) (<https://lex.uz/>).
11. Chipta va yo'l varaqalarini to'ldirish bo'yicha ko'rsatmalar (2003- yil 9- oktabrdagi ro'yxat raqami 1282) (<https://lex.uz/>).
12. O'zbekiston avtomobil transporti agentligi boshlig'ining 2004- yil 2- noyabrdagi 171- son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Yuk va yuk aylanmasini vaqtinchalik yuk avtomobillari bilan tashish hajmini aniqlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar" (<https://mintrans.uz/>).
13. Milliy hisoblar tizimi 2008 / YEJK, XVJ, IHTT, BMT, JB/Nyu-York 2009- y. (<https://unstats.un.org/unsd/nationalaccount/>).
14. Transport statistikasi bo'yicha lug'at. To'rtinchi nashr. Transport statistikasi bo'yicha idoralararo ishchi guruhi (IIG) (<https://unece.org/fileadmin/DAM/trans/main/>).
15. "Xalqaro amaliyotga muvofiq, yuklarni avtomobil transportida tashish hisobini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar", MDH statistika qo'mitasi, 1997- y. (<http://www.cisstat.com/rus/>).
16. "Hamdo'stlik mamlakatlarida aloqa va tashish faoliyati metodikasi va hisobga olishni tashkil etish", MDH statistika qo'mitasi, 2000- yil. (<http://www.cisstat.com/rus/>).

Avtomobil transporti faoliyati  
asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha  
uslubiy Nizomga  
1-ILOVA

**Avtomobil transporti bo'yicha statistik ma'lumotlarning shakllanish  
sxemasi**



Avtomobil transporti faoliyati  
asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha  
uslubiy Nizomga  
2-ILOVA

**Yirik tashkilotlarning avtotransport faoliyati hajmlarini baholash uchun statistika hisobotlari  
bo'yicha ayrim ko'rsatkichlarning doimiy koeffitsiyentlari  
va miqdorlarini hisoblash sxemasi**

|                               | Ko'rsatkichlar nomi                                                                          | Ko'rsatkich-<br>larning<br>belgilari | Axborot<br>manbasi                                          | Hisoblash algoritmi                                                                                                                                                                               |
|-------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------|-------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 avto yillik shakli bo'yicha |                                                                                              |                                      |                                                             |                                                                                                                                                                                                   |
| .                             | <b>5 va undan kam avtomobilga ega bo'lgan tashkilotlar bo'yicha baholash koeffitsiyenti</b>  | $K_o$                                | $(U_2 \times I_2) / (U_1 \times I_1)$                       |                                                                                                                                                                                                   |
| .                             | 1 va undan ko'p avtomobilga ega bo'lgan tashkilotlarning tashuvlari                          | $V_k$                                | 5-bob<br>3.1 bo'lim<br>3 ustun va<br>8-bob<br>3+5 ustunlar  | Yuklar = $\sum 301$ satr;<br>Yo'lovchilar = $\sum 348$ satr;                                                                                                                                      |
| .                             | 5 va undan kam avtomobilga ega bo'lgan tashkilotlarning tashuvlari                           | $V_2$                                | 5-bob<br>3.1 bo'lim<br>3 ustun va<br>8-bob<br>3+5 ustunlar  | Yuklar = $\sum 301$ satr;<br>Yo'lovchilar = $\sum 348$ satr;                                                                                                                                      |
